

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 8

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 132 sahifa.
E'lon qilishga 2024-yil 7-avgustda ruxsat etildi.*

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessor
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Musayeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori
Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi
Djudi Smetana, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Krissi Lyuis, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyea Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Benchmarking asosida oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshlik xususiyatini oshirish.....	16
Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Zaynutdinova Umida Djalolovna	
Mehnat resurslarini samarali boshqarish orqali ish bilan bandlikni ta'minlash	20
Shakarov Zafar Gafforovich	
Трансформация человеческого капитала в условиях цифровизации и внедрения искусственного интеллекта в банковскую экосистему	24
S.S. Ismailov	
“Kreativ iqtisodiyot” va “kreativ industriya”: mohiyati, nazariy jihatlarining tahlili	32
Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	37
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
Don mahsulotlari tarmog'ida mavjud kamchiliklar va ularning yechimlari	41
Sh.B. Donayev	
Eksportni rivojlantirish iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biridir	45
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq ma'muriyatchiligini tashkil etish.....	49
Idirisov Alisher Otajonovich	
Institutsional investorlar faoliyatini tashkil etishning konseptual jihatlarini.....	53
Sultanov Maxmud Axmedovich	
Poverty in developing countries: new problems and solutions.....	57
Amirdjanova Sitara Sunnat kizi	
Факторы, влияющие на успешное функционирование скандинавской модели развития экономики	61
Вохидова Мехри Хасановна	
Анализ зарубежного опыта методологии оценки финансового потенциала развитых стран	69
Буранова Лола Вахобовна	
Мамлакатimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etishning zarurligi.....	78
Babamatov Tolib Xakimovich	
Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining tashkiliy-huquqiy mexanizmlari	83
S.A.Karabayev	
O'zbekiston tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish yo'llari	90
Yusupov Aziz Shuxratovich	
Sanoatda raqamli transformatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi	95
Gulbayeva Feruza Islamovna	
Oliy ta'lim muassasalarining mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri.....	102
Sherov Alisher Bakberganovich	
Maxsus kiyimlar tikishda foydalaniladigan gazlamalar tahlili	107
Sayidova Maftuna Hamroqul qizi	
O'zbekistonda elektron bank xizmatlarini o'zgartirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish	111
Umarova Malika Baxtiyarovna	
Оценка влияния налоговой системы на финансовое состояние организаций.....	116
Умида Юлдашева	
Теоретическое обоснование интернет-маркетинга в социальных сетях.....	120
Арипходжаев Саидамир Фузулиддинович	



Sport tashkilotining marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	127
Ismoilov Sherzod Dilshodovich	



MAMLAKATIMIZDA ISLOM MOLIVAVIY XIZMATLARINI JORIY ETISHNING ZARURLIGI

Babamatov Tolib Xakimovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda Islom moliyaviy xizmatlarini joriy etishning zarurligi va uning nazariy asoslarini shakllantirish yo'llari hamda mavjud muammolar tahlili, rivojlantirish istiqbollarini takomillashtirish haqida so'z boradi. Shuningdek, maqolada zamonaviy Islom moliyasi xalqaro moliya bozorlarining rivojlanayotgan Islom moliyaviy xizmatlaridan foydalanish istiqbollarini O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida foydalanishni joriy etishdagi mavjud muammolar, ularni bartaraf etish bo'yicha muallif yondashuvlari va takliflari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Islom moliyaviy xizmatlari, Islom moliya tizimi, Islom moliyasi, islom siyosiy tizimi, islom iqtisodiy tizimi, mushoraka, sukkuk, mudoraba, murobaha, moliyalashtirish, islom banklari, islom darchalari.

Abstract: this article will talk about the need for the introduction of Islamic financial services in our country and ways to formulate its theoretical foundations, as well as improving the analysis and development prospects of existing problems. The article also presents the current problems in the implementation of the prospects for the use of developing Islamic financial services of the international financial markets of modern Islamic finance in the economy of the Republic of Uzbekistan, as well as author's approaches and proposals for their elimination.

Key words: Islamic Financial Services, Islamic financial system, Islamic finance, Islamic political system, Islamic economic system, mushoraka, sukkuk, mudoraba, murobaha, financing, Islamic banks, Islamic banks.

Аннотация: в данной статье будет рассказано о необходимости внедрения исламских финансовых услуг в нашей стране и способах формулирования ее теоретических основ, а также о совершенствовании анализа и перспективах развития существующих проблем. В статье также представлены актуальные проблемы в реализации перспектив использования развивающихся исламских финансовых услуг международных финансовых рынков современных исламских финансов в экономике Республики Узбекистан, а также авторские подходы и предложения по их устранению.

Ключевые слова: Исламские финансовые услуги, исламская финансовая система, исламские финансы, исламская политическая система, исламская экономическая система, мушорака, сукук, мудораба, муробаха, финансирование, исламские банки.

KIRISH

Dunyoda aholi sonining oshishi, resurslar tanqisligi, moliyaviy manbalarning cheklanganligi, migratsiya muammolari, ishsizlik va kambag'allik ko'rsatkichlarining ko'payishi global muammolarga aylanib bormoqda. Muqobil imkoniyatlarni yaratish esa osonlikcha hal bo'ladigan masala emas. O'zbekiston Islom moliyasi habi sifatida bu muqobil moliyaviy xizmatlarni yetkazib beradigan asosiy davlatga aylanishi esa uning har tomonlama rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, Islom qonunlari inson faoliyatining barcha jabhalariga, shu jumladan, siyosat, iqtisodiyot va jamiyat shakllanishiga ta'sir qiladi. Shunday qilib, adabiyotlarda "islom siyosiy tizimi", "islom iqtisodiy tizimi" va "islom moliya tizimi" kabi atamalar keng qo'llaniladi. Ushbu moliyaviy islom tizimlari ularni odatdagi bank tizimlaridan ajratib turadigan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ijtimoiy mas'uliyat, axloq qoidalari va halol ishbilarmonlik munosabatlariga katta e'tibor qaratilganligi sababli Islom moliyasi hozirgi kunda an'anaviy moliya tizimiga haqiqiy muqobili sifatida qaralmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlis palatalariga yo'llagan murojaatnomasida: "Mamlakatimizda Islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo'yicha huquqiy bazani yaratish vaqt-soati yetib keldi. Bu borada Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlari jalb etiladi"[1], – deb ta'kidlab o'tdi.

Islom moliyasi – dunyoviy tamoyillariga qarshi bo'lmagan moliyaviy tadbirkorlikni o'zida mujassam etgan faoliyatdir. Mamlakatimizda Islom moliyasi xizmatlarining rivojlanishi va uning kelgusida Islom moliyasi habiga aylanishi uchun yaratiladigan shart-sharoitlar nafaqat O'zbekiston uchun, balki MDH davlatlarida ham islom



bank ishi, karital bozori, sug'urta (takaful) va qayta sug'urtalash (retakaful), nobank institutlari, islom ijtimoiy moliyasi, islomiy fintex, halol sektor bo'yicha tajriba almashish va xizmat ko'rsatishda hamda Islom moliyaviy xizmatlari bo'yicha o'qitish va kadrlar tayyorlashda ko'mak beradigan markazga aylanishida muhim o'rin tutadi.

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI

So'nggi yillarda turli iqtisodchi olimlarning ilmiy adabiyotlarida Islom moliyasi xizmatlari mavzusi ko'p va bu borada tushunchalar va ilmiy izlanishlar mavjud. Quyida Islom bank xizmatlarining iqtisod, moliya va islom huquqi sohalaridagi mashhur olimlar fikrlarini keltirib o'tamiz. Jumladan, I.Vardi o'z asarlarida Islomiy banklar, sug'urta kompaniyalari va moliyaviy tashkilotlar, asosan, an'anaviy kontragentlar bilan bir xil moliyaviy vositachilardir. Umumiy vazifa taxminan o'xshash-investitsiyalarni jalb qilish, ularni foydali loyihalarga investitsiya qilish va sheriklar, investorlar va egalar bilan bo'lishish orqali foyda olishdir. Ammo an'anaviy va Islomiy moliyaviy tizim o'rtasida tub farqlar ham mavjud: bu asosiy diniy qonun - shariatda mavjud bo'lgan Islomiy tamoyillarga asoslangan to'rtta asosiy mutlaq taqiqlarning kombinatsiyasidir[2].

Shuningdek, so'nggi yillarda jadal rivojlanib borayotgan va jahon moliyaviy makonini ishonchli zabt etayotgan Islomiy moliya tizimiga bo'lgan qiziqish tobora kuchaymoqda. Yangi islomiy banklar, sug'urta tashkilotlari, investitsiya jamg'armalari tashkil qilinib, hatto ushbu tizim musulmon bo'lmagan mamlakatlarda ham keng rivojlanayotgani e'tiborga molik.

Islom moliya tizimi nafaqat musulmon dunyosi bilan cheklanib qolmay, balki ba'zi musulmon bo'lmagan mamlakatlarda ham mashhurlikka erishmoqda. Endi musulmon bo'lmagan davlatlar ham Islomiy derivativlarga katta qiziqish bildirmoqda va ulardan foydalanmoqda. U moliya sektorini real iqtisodiyot bilan bog'laydi va tavakkalchilikni taqsimlashga yordam beradigan aktivlar va axloqiy investitsiyalar bilan ta'minlangan kapital ishtirokiga asoslangan hisoblanadi[3].

O'rta asrlarda Islom moliyasi, asosan, musulmon dunyosida amal qilib, kreditni rivojlantirish bilan savdo va biznes faoliyatini rivojlantirgan. Ispaniya va O'rta yer dengizi va Boltiqbo'yi davlatlarida Islom savdogarlari savdo faoliyati uchun ajralmas vositachilarga aylanishdi. Darhaqiqat, Islomiy moliyaning ko'plab tushunchalari, texnikasi va vositalari keyinchalik yevropalik moliyachilar va ishbilarmonlar tomonidan qabul qilingan[4].

Islom moliya tizimi va an'anaviy moliya tizimi tomonidan taqdim etiladigan mahsulotlar va xizmatlar bir-biridan unchalik farq qilmaydi, ammo Islom moliya tizimi tomonidan taqdim etilgan takliflar o'rnatilgan axloqiy ta'limotlarga asoslanadi. Islom iqtisodiyotni tashkil etishning o'ziga xos iqtisodiy madaniyat tizimini tavsiya qiladi, bu boshqa falsafa maktablariga taklif qilinganidan ko'p jihatdan farq qiladi[5]. Islom moliya tizimi o'ziga xos va boshqa an'anaviy moliyaviy tizimlardan xarakter, operatsiyalar, aktivlar va passivlar tarkibi, tuzilishi jihatidan farq qiladi[6]. Yuqorida keltirilgan fikrlarga qo'shimcha qilgan holda Islom moliya xizmatlari foyda va zararni taqsimlash tamoyillariga asoslanadi, an'anaviy tizim esa belgilangan foyda marjasini taklif qiladi. Shuningdek, jismoniy shaxslar yoki korxonalarni moliyalashtirishda foizlarni olish va to'lashni cheklash Islom moliya tizimining asosidir.

Moliyaviy sohada Islomiy va an'anaviy tizimlarning birgalikda mavjudligini tan olishni hisobga olgan holda ba'zi Islomiy iqtisodchilar Islom moliyaviy xizmatlarining o'ziga xos tabiati yo'q bo'lib ketishining oldini olish uchun oddiy banklarga Islomiy xizmatlarni taqdim etishga ruxsat berilmasligi kerak, deb taxmin qilishadi.[7].

R. Katila va G. Ahujalar "Islomiy moliyaviy xizmatlari orqali strategik innovatsiyalar jarayoni orqali raqobatbardosh ustunlikka erishishi mumkin, bu boshqa omillar qatorida hech bo'lmaganda yangi bilim va imkoniyatlarni rivojlantirishni talab qiladi", deya ta'kidlab o'tishgan[8].

Yuqorida keltirilgan chet ellik olimlarning fikrlarini inobatga olgan holda rivojlanayotgan Islom moliyasi tizimini samarali boshqarish uning kelajakda omon qolishi va rentabelligini ta'minlash uchun juda muhimdir. Islom tamoyillariga asoslangan, shu bilan birga, zamonaviy bozorlarning talablariga javob beradigan yangi g'oyalarni amalda qo'llash va innovatsiyalarga ehtiyoj bor. Islom shariatiga muvofiq moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni yanada rivojlantirish zarurati Islom moliya xizmatlari rivojlanishi uchun juda muhimdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa usullardan foydalanildi. Maqolada qiyosiy taqqoslash usulida jahon amaliyotida Islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish usullarining tashkiliy-huquqiy asoslarini mamlakatimizdagi mavjud asoslar bilan taqqoslab, tegishli xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Islom moliyaviy mahsulotlari jahon miqyosida XX asr ikkinchi yarmida jadallik bilan joriy etilib, rivojlangan bo'lsa, XXI asrda Islom moliyasining moliyaviy inqirozlarga bardoshliligi, xatarlarning adolatli taqsimlanishi, real



aktivlarga asoslanganligi va iqtisodiyotda qiymat yaratish uchun xizmat qilishi kabi omillar hisobiga o'z jozi-badorligini oshirdi. Islom moliyasi xizmat va mahsulotlaridan, xususan, sukukdan musulmonlar kam istiqomat qiluvchi rivojlangan mamlakatlarda ham keng foydalanish boshlandi.

Islom moliya vosita va mahsulotlarini joriy qilgan dualistik tizimli mamlakatlar tajribasidan chiqarilgan xulosa shuki, Islom moliyasi an'anaviy moliya tizimi bilan teng raqobatlashgan holda jamiyatga iqtisodiy o'sish va samara olib keladi. Xususan, oxirgi yillarda Turkiya Islom moliyasi habi maqomini qo'lga kiritish uchun yirik loyihalarni amalga oshirmoqda. Bugungi kunda Turkiyada 6 ta islom banki mavjud bo'lib, ularning Turkiya bank bozoridagi ulushi 10 foizga yetgan. Hukumat ushbu ko'rsatkichni 2025-yilgacha 15 foizdan oshirishni maqsad qilib qo'ygan.

2021-yil Moody's global reyting agentligi Turkiyaning islomiy bank aktivlari keyingi 5 yil ichida kamida 2 baravar ko'payishini taxmin qildi, bunday tez o'sishga Turkiya hukumati tomonidan yaratilayotgan huquqiy asoslar hamda shart-sharoit sabab ekani ko'rsatilgan. Islom moliyasining rivojlanish ko'rsatkichlari hisobotiga ko'ra, 2021-yilda Qozog'iston va Qirg'istonda Islom moliyasida o'sishlar kuzatilgan.

O'zbekiston Islom moliyasini rivojlantirish potentsiali yuqoriligiga qaramasdan, bu borada qilingan ishlarni xalqaro ekspertlar "qilinishi kerak bo'lgan ishlardan ancha kam", deb baholamoqda. Xususi sektor vakillari tomonidan Islom moliyasi mahsulotlarining ba'zi turlari taklif etilayotgan bo'lsa-da, davlat tomonidan Islom moliyasini joriy qilish bo'yicha huquqiy asoslarning yaratilishi jadal sa'y-harakatlarni talab qiladi.

So'nggi yillarda o'tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, aholining ma'lum qismi an'anaviy bank xizmatlaridan diniy e'tiqod nuqtayi nazaridan foydalanmaydi. Bu, o'z navbatida, aholi qo'lidagi bo'sh pul mablag'lari, jamg'armalarining iqtisodiyotda faol harakatsiz, qo'shilgan qiymat yaratmasdan turganini bildiradi. Islom moliyasi bu mablag'larning aktiv harakatini ta'minlash evaziga faol iqtisodiy investitsiyalarning paydo bo'lishiga zamin yaratishi mumkin.

1-jadval. Islom moliyaviy xizmatlari turlari¹.

Islom moliyaviy xizmatlar turlari	Moliyalashtirishning mohiyati va mazmuni
Murobaha	Bu tomonlar o'rtasida oldi-sotdi shartnomasi ustama haq evazigabo'lishini anglatadi. Murobaha Islom banklari tomonidan amalga oshiriladigan aktivlarni moliyalashtirishning eng keng tarqalgan usuli hisoblanadi
Muzoraba	bu investor ("Robbul mol") va tadbirkor ("Muzorib") o'rtasidagi foydani taqsimlash shartnomasi. Muzoraba shartnomasida investorfoydani kelishilgan nisbatda yoki foizda tadbirkor bilan taqsimlashga rozilik beradi.
Mushoraka	Bu sherikchilikning bir shakli. Buni odatdagi kapital bozoridagi aksiyalarni sotib olishga o'xshatish mumkin, ammo qilingan investitsiyalar shariat tamoyillariga mos keladigan aksiyalar va moliyaviy qimmatli qog'ozlar yoki boshqa aktivlar bilan cheklanishi kerak
Ijara	O'z nomi bilan ijara yoki lizing shartnomasidir. Ijaraga berilganmulk huquqi buyurtmachiga o'tkazish imkoniyati ko'zda tutilgan bo'lsa, ijara shartnomasi "Ijara muntahia bitamlik"(mulkdorlik bilan yakunlanuvchi ijara) deb yuritiladi
Takoful	Arabchada "kafala" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, kafolat berish ma'nosini beradi. Aniqroq aytganda, bu "takafala" fe'lidan kelib chiqib, o'zaro kafolat berish va bir-birini himoya qilish ma'nosiga ega. Shuning uchun so'zma-so'z tarjima qilinganda, bu o'zaro yordamni anglatadi
Salam	Xomashyo narxini darhol to'lash, xomashyoni esa kelishilgan kechiktirilgan muddatda yetkazib berish uchun sotib olishni anglatadi. Salam shartnomasida narx to'liq va oldindan to'lanadi. Ushbu turdagi shartnomalar xomashyo narxi o'zgarishi mumkin bo'lganjoylarda qo'llanilishi mumkin
Istisna	Bu sotiladigan obyektни qurish, ishlab chiqarish yoki tiklash uchun belgilangan narx bo'yicha, belgilangan muddat davomida, tomonlar o'rtasida belgilangan xususiyatlarga ega obyektни moliyalashtirish shartnomasi
Sukuk	Mulkchilik manfaatlarini ifodalovchi teng nominaldagiinvestitsiya sertifikati. Sukukni sarmoyadorlarga foyda keltiradigan va an'anaviy aktivlar bilan ta'minlangan qimmatliqog'ozga o'xshash Islom moliyalashtirish instrumenti, deb tasavvur qilsa bo'ladi

Ma'lumot uchun, Jahon banki hisobotiga ko'ra, aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot (YaIM) 2021-yilda: past daromadli mamlakatlar – 1085 AQSh dollari yoki undan kam; past o'rta daromadli mamlakatlar – aholi jon boshiga Yaim 1086 AQSh dollardan 4255 dollargacha, yuqori o'rta daromadli mamlakatlar – aholi jon boshiga YaIM 4256 AQSh dollardan 13205 AQSh dollargacha, yuqori daromadli davlatlar – aholi jon boshiga Yaim 13205 AQSh dollari va undan yuqoriligi belgilangan (hisoblangan).

1 Муаллиф ишланмаси



O'zbekiston 2030-yilgacha yuqori o'rta daromadli davlatlar safiga qo'shilishi uchun boshqa sohalar qatori bank moliya sohasida ham jiddiy islohotlarni amalga oshirishi kerak bo'ladi. Shu bilan birga, 2030-yilgacha O'zbekistonning mintaqada Islom moliyasi bo'yicha markaz bo'la olish istiqbolini yaratish, rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish muhim.

Kambag'allikni kamaytirishga qarshi kurashishda, tashqi qarzga bo'lgan ehtiyojni sezilarli darajada kamaytirishda islom ijtimoiy moliyasi instrumentlari bo'lmish zakot va vaqf tizimini xalqaro tajribalarni o'rgangan holda institutsional tizimga solish ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan samarali bo'ladi.

2-jadval. Xalqaro islom savdo-moliya korporatsiyasi (XISMK) hamda Investitsiyalar va eksport kreditlarini sug'urtalash islom korporatsiyasi ustav kapitaliga O'zbekiston Respublikasi badallarini to'lash jadvali².

№	Yillar	IEKSIK aksiyalari bo'yicha badallar to'lovi			XISMK aksiyalari bo'yicha badallar to'lovi			Yillar bo'yicha jami to'lovlar AQSh dollarida
		Aksiyalar soni	Aksiyalar narxi		Aksiyalar soni	Aksiyalar narxi		
			Islom dinorida	AQSh dollarida		Islom dinorida	AQSh dollarida	
1.	2019	62	62 000,0	86 180,0	16	160 000,0	222 400,0	308 580,0
2.	2020	63	63 000,0	87 570,0	17	170 000,0	236 300,0	323 870,0
3.	2021	63	63 000,0	87 570,0	17	170 000,0	236 300,0	323 870,0
4.	2022	64	64 000,0	88960,0	17	172 000,0	327 260,00	327 260,0
JAMI:		252	252 000,0	173 750,0	68	672 000,0	933 300,0	1 283 580,0

Keltirilgan 2-jadvalni tahlil qiladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 1-fevralda O'zbekiston Respublikasining "Xalqaro islom savdo-moliya korporatsiyasi hamda Investitsiyalar va eksport kreditlarini sug'urtalash islom korporatsiyasiga a'zoligi to'g'risida"gi PQ-4147-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga asosan Xalqaro islom savdo-moliya korporatsiyasi hamda Investitsiyalar va eksport kreditlarini sug'urtalash islom korporatsiyasi rahbariyati tomonidan O'zbekiston Respublikasining Xalqaro islom savdo-moliya korporatsiyasi (XISMK) hamda Investitsiyalar va eksport kreditlarini sug'urtalash islom korporatsiyasi (IEKSIK) a'zoligiga kirishi bo'yicha amaliy ishlar olib borish kerakligi ko'rsatib o'tildi.

Shuningdek, Xalqaro islom savdo-moliya korporatsiyasi va Investitsiyalar hamda eksport kreditlarini sug'urtalash islom korporatsiyasi ustav kapitaliga O'zbekiston Respublikasi badallarini to'lash tartibi belgilab berildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi IEKSIKning 347 500 AQSh dollari ekvivalentidagi (umumiy qiymati 250 000 islom dinoriga teng) 250 ta aksiyasiga hamda XISMKning 695 000 AQSh dollari ekvivalentidagi (umumiy qiymati 500 000 islom dinoriga teng) 50 dona aksiyasiga o'rnatilgan tartibda obuna bo'lish vazifasi belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti qo'shimcha manbalari hisobidan IEKSIK aksiyalarining 50 foiziga obuna haqini to'lash uchun 125 000 islom dinori ekvivalenti hamda XISMK aksiyalariga obuna haqini to'lash uchun 500 000 islom dinori ekvivalenti miqdoridagi mablag'larni O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligiga ajratilishi belgilab berildi.

Umuman olganda, Islom moliyasining asosiy jihati har bir moliyalashtirish amaliyotining aktivlar bilan ta'minlanganidir. Bu yerda mablag'lar ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish kabi faoliyatlarga to'g'ridan to'g'ri yo'naltiriladi. Islom moliyasi ortiqcha, bo'sh pul massasining paydo bo'lishida ishtirok etmaydi hamda foizga asoslangan qarz munosabatlarini amalga oshirmaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasida mahalliy va xorijiy investorlar uchun Islom moliyaviy xizmatlari bozorida raqobatbardoshligi va jozibadorligini oshirishga imkon beradigan Islom banklarining ulkan salohiyatidan maqsadli foydalanishlari hamda mamlakatimizda Islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish quyidagi yo'llar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Birinchidan, Islom banklari yoki moliya kompaniyalari Islom moliyaviy xizmatlarni ko'rsatish uchun mahalliy banklar yoki moliya institutlari bilan hamkorlik shartnomalarini tuzishlari mumkin.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 1 февралдаги ПҚ-4147-сон сарорида илова. lex.uz/docs/4274853



Ikkinchidan, Islomni moliyalashtirish bo'yicha mutaxassislar uchun o'quv dasturlarini o'tkazish ushbu sohaning malakasi va tushunchasini oshirishga yordam beradi.

Uchinchidan, ushbu tamoyillar keng tarqalgan mamlakatlardan investitsiyalarni jalb qilish uchun Islom moliyaviy vositalardan foydalanish kapitalning qo'shimcha manbayi bo'lishi mumkin.

To'rtinchidan, Islom moliyaviy xizmatlarning ishlashini qo'llab-quvvatlovchi tegishli qonunchilik va me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish ham muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy jihatlaridan biridir.

Beshinchidan, mahalliy auditoriya talablariga javob beradigan mahsulotlarni yaratish uchun bozor va mijozlar ehtiyojlarini tahlil qilish muhimdir.

Ushbu strategiyalar tashqi bozorlarda Islom moliyaviy xizmatlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi va yangi mijozlarga ushbu xizmatlardan foydalanish imkoniyatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020 йил 29 декабр. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>
2. Warde I. Islamic Finance in the Global Economy / I. Warde. – 2nd ed. – Edinburgh: Edinburgh.
3. Kayed R.N. and M.K. Hassan. The global financial crisis and Islamic finance. Thunderbird International Business Review, 2011. 53(5): p. 551-564.
4. Iqbal Z. and A. Mirakhor. Financial Instruments, in An Introduction to Islamic Finance. 2011. p. 75-98.
5. Nosheen and A. Rashid, Business orientation, efficiency, and credit quality across business cycle: Islamic versus conventional banking. Are there any lessons for Europe and Baltic States? Baltic Journal of Economics, 2019. 19(1): p. 105-135.
6. Zaher T. and M.K. Hassan. A Comparative Literature Survey of Islamic Finance and Banking. Financial Markets, Institutions & Instruments, 2001. 10: p. 155-199.
7. Al Alaywi R. (2006), "Islamic banking products", Al Qabas Newspaper, September 1.
8. Katila R. and Ahuja G. (2002) "Something old something new: a longitudinal study of search behavior and new product introduction", Academy of Management Journal, Vol. 45, pp. 1183-94.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

